



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 6-dekabr, № 260 (8603)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

XALQ HOKIMIYATCHILIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LIDA



Albatta, yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat va jamiyat hayotining barcha jabhasiga doir masalalarni qamrab olgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, unda milliy parlamentimiz vakolatlarini yanada kengaytirishga

qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar haqiqatan ham "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai", degan normani hayotga to'laqonli tatbiq etish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish imkonini beradi.

Shu kunlarda yurtdoshlarimiz milliy davlatchilgimiz, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq sohaslarini izchil rivojlantirishning mustahkam zaminini — Konstitutsiya kuni bayramini ko'tarinki ruhda nishonlashga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. Joriy yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan umumxalq referendumida xalqimiz o'zining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Yurtdoshlarimiz o'z taqdiri va ertangi kunini belgiladi, tanlagan taraqqiyot yo'limiz qanchalik to'g'ri, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar naqadar samarali ekanini va ortga qaytmas tus olganini yana bir bor tasdiqladi.



Tanzila NORBOYEVA, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi

Senat faoliyatiga doir yangiliklarni oladigan bo'lsak, uning mutlaq vakolatlari amaldagi 14 tadan 18 taga yetkazildi. Bunda Prezidentning ijro va sud hokimiyati tizimini shakllantirish sohasidagi amaldagi ayrim vakolatlari parlamentga berildi. Shu bilan birga, Oliy Majlis palatalari faoliyatidagi o'zaro takrorlanishlar bartaraf etildi.

Haqiqatan ham, so'nggi yillarda milliy parlamentimizni rivojlantirish, ayniqsa, uning qonunchilik faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va g'oyalari asosida qabul qilingan va so'nggi yillarda yurtimizni har tomonlama rivojlantirishning yangicha modelini o'zida ifodalagan Harakatlar strategiyasi hamda ushbu hujjat asosida ishlab chiqilgan davlat dasturlarida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham qonun ijodkorligi sifatini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, Prezidentimizning

2017-yil 22-dekabr kuni mamlakatimiz tarixida ilk bor Oliy Majlisa yo'llagan tarixiy Murojaatnomasida ham biror-bir masalani aniq hal etmaydigan, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qilish amalda ko'plab muammolar tug'dirayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan edi.

Albatta, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada Senatga qonunchilikka oid takliflarni qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi berilgani bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, aholini qiynab kelayotgan

masalalarning qonuniy yechimini topish borasidagi faoliyatimiz samaradorligini yanada oshiradi.

Misol uchun, o'tgan yilning may oyida Senat huzurida xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha maxsus ishchi guruh tuzildi. To'qqiz oy mobaynida mas'ul vazirlik, idoralar, nodavlat tashkilotlar, xalqaro ekspertlar va jamoatchilik faollaridan iborat ishchi guruh tomonidan juda katta hajmda o'rganish va tahlillar olib borildi.



FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY ERKINLIKLARINI TA'MINLASH — DOLZARB MASALA

Kecha poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlisi o'tkazildi. Unda Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, Hukumat, Oliy sud, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, nodavlat notijorat tashkilotlari, ta'lim va ilmiy tashkilotlar vakillari hamda Konstitutsiyaviy sud ilmiy-maslahat kengashi a'zolari qatnashdi.

Yig'ilish

Konstitutsiyaviy sud raisi M. Abdusalomov olib borgan ushbu majlisda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida "gi Konstitutsiyaviy Qonunga muvofiq Konstitutsiyaviy sudning mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniyligining holati to'g'risidagi axboroti ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, joriy yil 30-aprel kuni referendumda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash va mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniyligini muhitini yanada mustahkamlash uchun huquqiy asos bo'ldi. Asosiy Qonun davlat organlarining faoliyatini demokratishtirish, inson huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoit yaratdi. Konstitutsiya fuqarolarning dunyoqarashi hamda huquqiy ongini sezilarli darajada yuksaltirdi. Ayniqsa, uning to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladigan huquqiy hujjat sifatida qabul qilinishi natijasida kundalik hayotda Konstitutsiyaga murojaat etish imkoniyatining kengayishi, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini yanada oshirdi. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan qisqa davrda umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan 21 mingdan ziyod jinoyat, ma'muriy, iqtisodiy hamda fuqaroviy ishlar bo'yicha Konstitutsiya va uning moddalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilgan. Konstitutsiyaviy sud tomonidan

2022-2023-yillarda 119 qonun va 1384 ta boshqa normativ-huquqiy hujjat bo'yicha murojaatlar hamda huquqni qo'llash amaliyoti o'rganilganligi, Konstitutsiyaviy sud, birinchi navbatda, huquqiy normalarni qo'llashning konstitutsiyaviy-huquqiy masalalarini e'tiborga olishi aytib o'tildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud Asosiy Qonun uning normalarini to'laqonli amalga oshirish bo'yicha davlat organlari oldiga keng ko'lami va mas'uliyatli vazifalar qo'yishi va ayni paytda uni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash bilan bog'liq ayrim masalalar ham mavjudligiga e'tibor qaratdi. Konstitutsiya ustuvorligi, inson hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, o'z navbatida, qonuniyligini hamda huquq ustuvorligiga ta'sir etayotgan omillarni vakolatli davlat organlari tomonidan o'z vaqtida aniqlash va tekzor chora ko'rishni taqozo qiladi.

Shu munosabat bilan Konstitutsiyaviy sud aholi murojaatlarida ko'tarilgan konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash bilan bog'liq bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratdi.

Xususan, bola huquqlari buzilishi holatlari kuzatilayotganligini inobatga olib, bolalarni turli ko'rinishdagi zo'ravonliklardan himoya qilish, bu borada ota-onalar, ta'lim muassasalar, boshqa mutasaddi idoralar mas'uliyatini oshirish, tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq ekani aytib o'tildi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON MANFAATLARI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan "Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlarining kafolatlari" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi. "Ochiq eshiklar kuni" doirasida quyi palata deputatlari, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchi yoshlari ishtirokida bo'lib o'tgan tadbirda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy asosi bo'ldi. Bosh qomusimiz moddalarini 128 tadan 155 taga, uning normalari esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Asosiy Qonunimizda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlarini bilan bog'liq normalar soni uch barobar ko'paydi.

Tadbirda quyi palata deputatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati haqida to'xtalib o'tdi. Xususan, Bosh qomusimizning qabul qilinish jarayonlari, yangi moddalar va yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar xususida ma'lumot berildi. Asosiy Qonunimizda yoshlarga oid alohida bob kiritilgani ta'kidlandi.

Aytilganidek, Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki

rag'batlantirilishi kafolatlalab qo'yildi. Jumladan, 79-moddada davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi belgilab qo'yildi.

Bugun yurtimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanmoqda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo o'ziga xos mexanizmlari hayotga tatbiq etilmoqda, — deydi Qonunchilik palatasi deputati Firdavs Sharipov. — Xususan, davlatning fuqarolarga bo'lgan g'amxo'rligi yanada kuchaymoqda, davlat institutlarining faoliyati samaradorligi oshmoqda, inson huquqlari tubdan kengaymoqda. Konstitutsiyamizda yoshlar masalasiga alohida ustuvorlik

berilgani, shubhasiz, mamlakatimizda salohiyatli, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining turli jabhalarida o'z bilim va tafakkuri bilan xizmat qilishga tayyor bo'lgan kelajak egalarining kamol topishiga yo'l ochadi.

Konstitutsiyamizda yoshlarga oid qator normalar o'z ifodasini topgani, alohida bir bobning oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangani yurtimizda navqiron avlod huquqlarini himoya qilishga qanchalik e'tibor qaratilayotganini ko'rsatishi tadbirda so'z olgan yigit-qizlar tomonidan alohida qayd etildi.

Davra suhbatida Qonunchilik palatasi faoliyati bilan yaqindan tanishish bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'z aksini topgan normalar haqida ham kengroq ma'lumotga ega bo'ldik, — dedi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Ozoda Abdullayeva. — O'z navbatida, o'zimizni qiziqtirgan savollarga deputatlardan batafsil javoblar oldik. Ayniqsa, Qonunchilik palatasida tashkil etilgan ko'rgazmadan o'rin olgan ko'plab eksponatlar bizda katta taassurot qoldirdi.

Yakunda ishtirokchilar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, fraksiyalar, qo'mitalar, shuningdek, kutubxona va muzey faoliyati bilan tanishdi.



tashkil etildi. Vatandoshlar ishtirokida bo'lib o'tgan tadbirda yangilangan Konstitutsiyaga kiritilgan normalarning mohiyati, shuningdek, O'zbekistonda aholi turmush darajasini yanada oshirish, huquq va erkinliklarini ta'minlash, barcha sohada olib borilayotgan izchil islohotlarning ahamiyati haqida fikr almashildi.

Ta'kidlanganidek, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, mamlakatning barqaror rivojlanishi, shuningdek, aholi turmush darajasining

bir mamlakat suvereniteti, uning davlatchiligi rivoji, fuqarolarning turmush tarzi, jamiyatdagi o'rnini belgilab berishi hamda mustaqil, erkin, tinch va farovon hayotning kafolati bo'lib xizmat qilishini ta'kidlandi.

Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatimiz ilk bor ijtimoiy, dunyoviy, huquqiy davlat, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatlari va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi mustahkamlab qo'yilgani qayd etildi.



ISLOMOBODDA «O'ZBEKISTON — POKISTON: MUSHTARAK MADANIY MEROS» FOTOKO'RGAZMASI OCHILDI

O'zbekistonning Islomoboddagi elchixonasi tomonidan Pokiston milliy san'at kengashi bilan birgalikda tashkil etilgan ko'rgazma mamlakatlarimiz o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 31 yilligiga bag'ishlandi.

Tadbir

Tadbirda Pokiston federal milliy meros va madaniyat vaziri Said Jamal Shah, shuningdek, ushbu mamlakatning O'zbekistondagi sobiq elchilari, Islomobodda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakolatxonalar rahbarlari, hamkor vazirlik va

idoralar, ekspert-tahlil doiralar, san'at va madaniyat sohasi hamda OAV vakillari qatnashdi.

Fotoko'rgazmada ikki tomonlama oliy darajali uchrashuvlarda oid suratlar, o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi Protokol

nusxasi (1992-yil 10-may), ikki mamlakat hududlarida joylashgan muqaddas qadamlar, tarixiy obidalar, milliy o'zbek liboslari va taomlariga bag'ishlangan rasmlar va "O'zbekiston madaniy merosi" kitob-to'plami namoyish etilmoqda.

Madaniy tadbirning ochilish marosimidagi nutqida Federal milliy meros va madaniyat vaziri Said Jamal Shah Pokiston va O'zbekistonda ko'p asrlik madaniy aloqalar bog'lab turishini, o'z mamlakati folklor adabiyoti O'rta asrlardagi o'zbek mumtoz adabiyoti ta'sirida shakllanganini qayd etdi.



F. XUDYOYBERDIYEV
(“Xalq so‘zi”).

